

2-TOM, 11-SON

SUN'IY INTELLEKTNING MAKTAB O'QUVCHILARIGA BO'LGAN TA'SIRI

Ismoilova Muslima O'ktam qizi

Termiz shahar 3-ixtisoslashtirilgan

maktab o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda hozirgi kunda foydalanilishi ommalashib borayotgan sun'iy intellektning maktab o'quvchilarining ta'lim olish jarayoniga qanchalik ta'sir qilayotganini bir qancha misollar va qarashlar bilan o'rganiladi. Sun'iy intellektning ushbu maktab tizimidagi ulushi kelajakda qay darajada rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim algoritmlari, virtual obyektlar, texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimi, imkoniyatlar, inqilob, diskriminatsiya, intellektual repetitorlik tizimi, raqamli ilovalar, xavfsiz aloqalar.

Kirish

Barchamizga a'yonki, oxirgi o'n yillikda butun dunyoda su'niy intellektning foydalanilishi oshib bormoqda hamda u dunyoda foydalanilishi bo'yicha beqiyos o'ringa chiqib oldi. Sun'iy intellekt biz bilgan dunyoni shiddat bilan o'zgartirmoqda va, albatta, bu ta'lim tizimiga ham ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. AI (sun'iy intellekt) ta'limdagi muammolarni hal qilish va SDG 4 (maqsadini ta'lim tiziminining sifatini oshirishga qaratgan loyiha (Sustainable development goal)) sari olg'a siljishni tezlashtirish uchun samarali vositaga aylandi. AI ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish qobiliyati bilan o'qituvchilarga o'quvchilarning faolligi, o'qishdagi taraqqiyoti va farovonligi haqida ma'lumot berishi mumkin. Bundan tashqari, maktablarning o'zaro ta'siri va shaxsiy rivojlanish monitoringi uchun o'rnatilgan raqamli ilovalar va vositalar ham ta'lim tizimida alohida o'rin egallaydi.

AI shaxsiylashtirilgan ta'lim algoritmlari orqali o'qish va o'qitish jarayonlarini optimallashtirish orqali ta'limni o'zgartirish imkoniyatiga ega, ya'ni siz bu yerda faqatgina kamchiliklarni emas, bir qancha foydali bo'lgan imkoniyatlar eshigi ochilganini ham ko'rishingiz mumkin. Bu texnologiya har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam berib, AI o'quv materiallarini shaxsiy ehtiyojlariga qarab moslashtirishi mumkin, bu esa rivojlanish uchun katta turtki bo'ladi, deb ayta olamiz. Su'niy intellekt orqali biz virtual dunyoni yarata olamiz va bu hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda amalga oshirilmoqda. Bu tajribalar uzoq mamlakatlardan kelgan o'quvchi bilan muloqot qilish yoki uzoq vaqt va xarajat talab etadigan masofalarni ko'rish imkoniyatini beradi. Bu orqali ular nafaqat sinfxona ichida balki o'z xonalarida ham boshqa yurtlarga sayohat qila oladi, o'rgana oladi va bema'lol tadqiqot ishlarini ham amalga oshirishlari mumkin. Bundan



2-TOM, 11-SON

tashqari turlicha xil dars mashg'ulotlarida o'quvchilar qiynalmasdan tasavvur qila olishadi va bu esa ularning bir qancha bilim va ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilgan virtuallik texnologiyasi o'quvchilar uchun yanada qiziqarli o'rganish tajribasini hosil qiladi, bu esa ularga virtual obyektlar bilan ilgari imkonsiz bo'lgan tarzda bir-biriga o'zaro ta'sir qilish imkonini beradi. Sinfxonlardagi smart doskalar yoki ekranlardagi turlicha qurilmalar yoki smartfonlar yordamida odamlar atrofida ko'rayotgan narsalarga ayni vaqt davomida ma'lumot joylashtirish orqali odamlarning ma'lumot almashish usullarini o'zgartiradigan yangi tajribalarni amalga oshiradi.

Ta'limda AIning afzalliklari chuqur bo'lsa-da, ba'zilar ushbu texnologiyalarni to'liq samarali tatbiq etish bilan bog'liq zararli xavflar borligini ham ta'kidlashadi. Maxfiy ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha bir qancha savollarni tug'diradi, ya'ni, sizning ma'lumotlaringiz va hayotingiz yetarli darajada xavfsiz bo'lmaydi, bu esa ma'lumotlarning qanday to'planishiga oid aniq tizimni talab qiladi, bu manfaatdor tomonlar o'rtasida xavfsiz aloqalar o'rnatishga halaqit qiladi va shuningdek ba'zi tadqiqotlar aytishadiki, bu kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish insonlarning tanqidiy fikrlash holatini susaytiradi,shu bilan birga ko'pchilik insonlarda psixologik muammolar paydo bo'lishni boshlashi mumkin.

Ta'lim tizimida AIning eng muhim afzalliklaridan biri-bu- shaxsiylashtirilgan ta'limdir. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar har bir o'quvchi uchun o'ziga xos o'rganish qobiliyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan dars rejalari va ko'nikmalarni yaratishi mumkin. Bu o'quvchilarning rivojlangan ta'lim tajriba va ko'nikmalarni olishini ta'minlaydi, bu esa faollikni oshirish va ishlashni yaxshilashga olib keladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt maxsus ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun yaxshiroq ta'lim olishni ta'minlaydi. Intellektual repetitorlik tizimlari bilan sun'iy intellektga asoslangan qurilmalar o'quvchi qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlaydi va shunga mos ravishda o'ziga moslashtirilgan ko'rsatmalarni taqdim etadi. Bu qo'shimcha vaqt talab qilishi mumkin bo'lgan yoki ba'zi fanlar bo'yicha yordamga muhtoj bo'lgan talabalarga tengdoshlari bilan bir darajada qolishga yordam beradi.

Ta'limda sun'iy intellektning yana bir afzalligi shundaki, u bir vaqt ichida muammolarni hal qilishda baholash tizimini ham faollashtiradi. O'qituvchilar ushbu texnologiyalardan dars yoki kurs davomida foydalanib shaxsiy rivojlanish taraqqiyoti orqali kuzatish, ularning tasavvur qilish doirasini kengaytirishga katta hissa qo'shadi. Shunday



2-TOM, 11-SON

qilib, ular ko'proq e'tibor talab qiladigan sohalardan bemalol xabardor bo'la oladilar va shu tariqa ular o'ziga xos fikr va g'oyalarni yarata oladi.

Qo'shimcha qilib aytganda, sun'iy intellekt ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim olishdan yaxshiroq foydalanishni ham ta'minlaydi. Shaxsiy to'garaklar tizimlari bilan sun'iy intellektga asoslangan qurilmalar orqali ular ko'p bo'lmagan xarajat orqali ta'lim olishadi va tengdoshlari bilan bir xil darajaga chiqa olishadi.

Nihoyat, kompyuterlarga Pokémon Go kabi VR o'yinlarini o'tkazish imkonini beruvchi kameralarni kiritish orqali bir qancha masofalarni aniqlashtiruvchi xaritalar yaratish imkonini beruvchi SLAM (bir vaqtning o'zida mahalliyashtirish va xaritalash loyihasi) deb nomlangan haqiqiy bo'lgan obyektlarni ko'rish algoritmlari bo'yicha sun'iy intellektni yaratishdagi yutuqlar tufayli endi virtual dunyo (VR) tajribalari mavjud! Janubiy Kaliforniya universiteti Ijodiy texnologiyalar instituti askarlar o'quv simulyatsiyasi paytida yo'nalishlarni o'qishdan ko'ra, ushbu simulyatsiyalardan foydalanganda tez o'rganganligini aniqladi. Agar butun dunyo insonlari shu kabi dasturlardan foydalansa bu davlatlarning yanada tezroq rivojlanishi va takomillashishi uchun muhim turtki bōladi desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa

Umuman olganda, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan imtiyozlar o'qitish va o'rganish usulini ajoyib tarzda o'zgartirmoqda. u butun dunyo bo'ylab o'quvchilarning qanday sharoitlarda kun kechirayotganligidan qat'iynazar, barcha uchun bir xil imkoniyatlarni taqdim etadi va bu ko'plab maktablar qiynalayotgan diskriminatsiya yoki boshqacha aytganda gender tengsizligini yo'qotishga katta yordam beradi.

Sun'iy intellekt ta'limni inqilob qilishga va sanoatdagi uzoq vaqtdan beri mavjud muammolarni hal qilishga tayyor bolib turmoqda. kelajakda esa yani 2027 yilga borib sun'iy intellekt ta'lim bozori 20 milliard dollarga yetishi kutilmoqda va bu texnologiya butun dunyo bo'ylab porloq kelajakka ega ekanligiga shubhalarni birin ketin yo'qotmoqda. Shuningdek, aytish joizki, hozirgi kunda bu texnologiya orqali 12 milliarddan ortiq insonlar ish o'rinlariga ega. IBM(Xalqaro biznes mashinalari korporatsiyasi) ma'lumotlariga ko'ra: Hozirda kompaniyalarning 34 foizi sun'iy intellektdan foydalanmoqda, qo'shimcha 42 foizi esa sun'iy intellektni o'rganmoqda. Tashkilotlarning 35 foizi yangi sun'iy intellekt va avtomatlashtirish vositalaridan foydalanishga o'z jamoalarini o'rgatmoqda va malakasini oshirmoqda.

Ko'ngilochar va katta tezlikda ommalashib borayotgan mashhur Netflix programmasi AI dasturiy ta'minotidan foydalanishi bilan mashhur bo'lib, kompaniya yiliga 1 milliard dollar tejamkorlik qiladi. Aning ta'limdagi yana bir asosiy afzalliklaridan biri,



2-TOM, 11-SON

uning o'qituvchilarga muhim bo'lgan muammolarni kamaytirish va ba'zi burchlarini soddalashtirishga yordam beradi Shaxsiylashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash tizimi va aqlli repetitorlik tizimlari – AI o'quvchilar o'rganish va o'qituvchilar ishini o'zgartirish usullaridan faqat o'ndan bir qismidir Muntazam vazifalarni avtomatlashtirish orqali o'qituvchilar talabalar bilan yakkama-yakka muloqot qilish yoki o'qitishning ijodiy jihatlariga e'tibor qaratish uchun ko'proq vaqtga va imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Biroq, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari va xizmatlarining samaradorligi haqida bir qancha xavotirlar ham yetarligina. Ushbu texnologiyalar shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etishga yordam bersa-da, ular odamlarning o'zaro ta'sirini yarata olmaydi, ya'ni bu fikr inson bilan muloqot qilinib olingan bilim sun'iy intellekt orqali olingan bilimdan ancha samaradorligini ta'kidlamoqda. Bundan tashqari, o'quvchilardan olingan ko'nikma va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha qilingan tadqiqotlarga oxirgi yillardagi ehtiyoj tezlik bilan oshib bormoqda.

Ushbu xavotirlarga qaramasdan, sun'iy intellekt ta'lim sohasida samaradorlik va salohiyatni yuzaga chiqarish uchun ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini ham inkor eta olmaymiz. Bu texnologiyalarning zararli tomonlarini kamaytirish uchun biz insonlar bu qismda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi samarali muloqotni rivojlantirishimiz va tengdoshlarimiz o'rtasida muloqotni osonlashtiradigan aqlli qurilmalarni va texnologiyalarni yaratishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Sun'iy intellekt asoslari"; S.Komolov va SH.Raxmatov. Darslik.-ISBN 4623720660024; chop etilgan yili:2022.pp.34-40-99
2. <https://www.neumont.edu/>
3. <https://youtu.be/1NL1kE8qQvU?si=twGWMR4FLILHz42E>
4. Top artificial intelligence statistics and facts for 2024; February 29, 2024. By Emily Matzelle.

